

SALJUQIYLAR SULOLASINING O'RTA OSIYODA TUTGAN O'RNI VA SIYOSIY TARIXI HAQIDA

Sattorov Firdavs Ulug'bek o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix fakulteti talabasi

Tel: +998919058632

E-pochta sattorovfirdavs1612@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola saljuqiylar sulolasining siyosiy tarixiga bag'ishlanadi. Ushbu sulolaning Osiyo hududida hukm surganligi va bu sulolaning kuch qudratga erishishi katta ahamiyatga egadir. Shuningdek maqolada mazkur sulolaning krlib chiqishi tarixi, sulola vakillarining somoniylar va g'aznaviylar sulolasining ta'siridan ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatga aylanishi haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Turkiston, Saljuqiylar, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, "O'g'uznoma", Rashididin, Mahmud Qoshg'ariy, To'g'rulbek, Chag'ribek, Iroq, o'g'uz, Eron, Saljuq ibn Do'kak, Muso, Yunus, Isroil, Mikoil, Buxoro, Jand, Shohmalik, Nur(Nurota), Somoniylar, qoraxoniylar, Movarounnahr, Alitakin, Tunush, G'aznaviylar, Niso, Farova, Obivard, Mahmud G'aznaviy, Marv, Dehiston, Ma'sud, Xuroson, Abulfazl Suriy, Ozarbayjon, Kurdiston, Bag'dod, Alp Arslon, Dandanakon, Yusuf al- Xorazmiy, Termiz, Nizom ul - mulk, Berkiyuruq, Malikshoh, Sanjar, Arslonxon, Katvon.

Аннотация: Данная статья посвящена политической истории династии Сельджуков. Показательно, что эта династия правила в Азии и что эта династия получила власть. В статье также описывается история династии, освобождение династии от влияния династий Саманидов и Газневидов и ее превращение в независимое государство.

Ключевые слова: Туркестан, Сельджуки, Хорезм, Сурхандарьинская, Кашкадарьинская, «Огузнома», Рашидидин, Махмуд Кашгари, Тогрулбек, Чагрибек, Ирак, Огуз, Иран, Сельджук ибн Докак, Муса, Юнус, Израиль, Микаил, Бухара, Джанд, Шохмалик, Нур (Нурата), Саманиды, Караханиды, Мовароуннахр, Алитакин, Тунуш, Газневиды, Ниса, Фарова, Обивард, Махмуд Газневи, Мерв, Дехистан, Ма Суд, Хорасан, Абульфазл Сури, Азербайджан, Курдистан, Багдад, Алп Арслан, Данданакон, Юсуф аль-Хорезми, Термез, Низам ул-мульк, Беркиёрук, Маликшах, Санжар, Арсланхан, Катван.

Annotation: This article is devoted to the political history of the Seljuk dynasty. It is significant that this dynasty ruled in Asia and that this dynasty gained power. The article also describes the history of the dynasty, the liberation of the dynasty from the

influence of the Samanid and Ghaznavid dynasties and its transformation into an independent state.

Keywords: Turkestan, Seljuks, Khorezm, Surkhandarya, Kashkadarya, Oguznoma, Rashididin, Mahmud Kashgari, Togrulbek, Chagribek, Iraq, Oguz, Iran, Seljuk ibn Dokak, Musa, Yunus, Israel, Mikail, Bukhara, Jand, Shohmalik, Nur (Nurata), Samanids, Karakhanids, Movarounnahr, Alitakin, Tunush, Ghaznavids, Nisa, Farova, Obivard, Mahmud Ghaznavi, Merv, Dehistan, Ma Court, Khorasan, Abulfazl Suri, Azerbaijan, Kurdistan, Baghdad, Alp Arslan, Dandanakon, Yusuf al-Khwarizmi, Termez, Nizam ul-mulk, Berkiyuruq, Malikshah, Sanjar, Arslankhan, Katvan.

Kishilikning eng qadimgi madaniy o'choqlaridan biri hisoblanmish Turkiston tarixiy taraqqiyotning o'nqir-cho'nqirlariga qaramay doimo o'zining sernufuzligi bilan ko'zga tashlanib kelgan, va tabiiy ravishda hayot shahar va vohalardan tashqarida - dashtu biyobonlarda ham qaynagan. [3, 123 b.] Shuning uchun ham Turkiston xalqlari hayotida o'rtoq, yarim o'rtoq va ko'chmanchilik turmush tarzi yonma-yon, bir-biriga g'oyatda bog'liq ravishda mavjud bo'lib kelgan. Xorazm, Zarafshon, Farg'ona, Qashqadaryo, Surxondaryo voha va vodiylarda yashagan xalqlar ming yillar davomida asosan o'troq hayot kechirib kelgan bo'lsalar, atrofdagi cho'lu biyobonlarda, tabiiy ravishda, ko'chmanchi, yarim ko'chmanchilar istiqomat qilgan. Shu bilan birga ko'chmanchi muhitdan ham vaqti kelib qudratli siyosiy sulolalar yetishib chiqqani ham ma'lum. Bu, ayniqsa, saljuqiylar sulolasi ko'zga yaqqol tashlanadi. saljuqiylar turkiy o'g'uz qavmi tarkibida dastlab hozirgi janubiy Qozog'iston hududiga to'g'ri keladigan yaylovlarda, Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlarda ko'chmanchi hayot kechirar edilar. Aslini olganda huddi shu vaqtda saljuqiylar sulolasi hali shakllanmagan edi. Saljuqiylar bu etnik nom emas, ular turkiy o'g'iz qabilalaridir. Ular Sirdaryo quyi etaklarida, Orol havzasida yashagan, ko'proq ko'chmanchi hayot kechirgan.

"O'g'uznoma" kitobida naql qilinishicha, o'g'uz urug'lari, qavmlari juda qadimiy tarixga ega bo'lib, ularga ilk bor O'g'uzxon nomli buyuk shaxs boshchilik qilgan. IX asr oxiri X asr o'rtalariga kelib Orol bo'yi va Kasbiy shimolida o'g'uz urug'lari ittifoqi shakllangan. [5, 126 b.] X asr oxirida Sirdaryo etagida poytaxti Yangikent bo'lgan o'g'uzlar davlati tashkil topadi. XI asr o'rtalariga kelib bu davlat shimoli sharqdan bostirib kelgan qipchoqlar zarbasiga uchraydi. Natijada, o'g'uz urug'larining bir qismi shimolga -dashtli hududlarga, bir qismi old Osiyo mamlakatlariga chekinadi, yana bir qismi esa hozirgi Turkmaniston hududiga o'tib, yerli aholiga qo'shilishib, Turkmanlar nomi bilan atalib ketadi. Tarixchi Rashididin, shuningdek, Mahmud Qoshg'ariy, Abul g'ozziylarning ma'lumotlariga qaraganda, o'g'uzlar 22 yoki 24 qabiladan, chunonchi, chavdir, emreli, ichdir, yazir, salir, qoradishli, bayot, koyi, taturga va boshqalardan tashkil topgan. [5, 127-128 b.] Sirdaryo quyi oqimida paydo bo'lgan o'g'iz davlatining dastlabki yobg'usi (podshosi) Saljuqbek (taxminan IX asr oxiri-X asr oxiri) bo'lgan.

Uning avlodlari To'g'rulbek, Dovudbek, Chag'ribek va Shakarbeklar o'z davrlarida saljuqiylar shuhratini yuksakka ko'tardilar.

Hozirgi Turkiya turklari, Iroq, Eronda yashovchi Turkmanlar, shuningdek gagauzlar, Ozarbayjon xalqlarining shakllanishida saljuqiy turklarning roli va ta'siri alohidadir. Saljuqiylar kelib chiqishi bo'yicha turkiy o'g'uz qavmiga tegishli bo'lib, Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlarda ko'chmanchi tarzda hayot kechirar edilar. O'g'uz qabilalari bir necha urug'ga bo'lingan edi. Ushbu urug'lardan biri - qiniq urug'i bo'lib, uning sardori - Saljuq ibn Do'kak ismli kishi bo'lgan. Tarixchilar, xususan Ibn al - Asir Saljuqni iste'dodli, o'z fikr - mulohazasiga ega rahbar sifatida ta'riflangan. [2, 396-397 b.] Ular ma'lum sabablarga ko'ra 925 - yilda Jand viloyatiga kelib o'rnashib, so'ngra islom dinini qabul qiladilar. Saljuqning Muso, Yunus, Mikoil, va Isroil ismli o'g'illari bo'lgan. Isroil manbalarda Arslon nomi bilan keltiriladi. Dovud esa Chag'ri nomi bilan ataladi. To'g'rul keyinchalik o'ziga Muhammad ismini ham olgan. Tarixiy manbalarning xabariga ko'ra Saljuq Jandda 102 yoshda vafot etib, o'sha yerga dafn etilga. Mikoil ham o'zaro kurashlarning birida halok bo'lib, uning o'g'illari To'g'rul va Dovudlar Buxorodan 12 farsah uzoqlikdagi yerlarga kelib o'rnashadilar. Saljuqiylar dastlab quyi Sirdaryo hududidagi Jand tumanlari atrofida chorvachilik qilib ko'chib yurganlar. Ammo bu yerning hokimi Shohmalik bilan urishib qolib Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'iga - Nur (Nurota) tumaniga ko'chib ketishga majbur bo'ladilar. [1, 200 b.] Bu tuman hududlarida ko'chib yurishga somoniylar ruxsat bergan edilar.

Somoniylar saljuqiylar bilan yaxshi, tinch - totuv yashashdan manfaatdor edilar. Chunki Saljuqiy turklar qaoraxoniylarga qarshi kurashda somoniyalarga yordam berardilar. Biroq bu yordamga juda ishonib ham bo'lmasdi. Ammo XI asrning birinchi yarmida turkman saljuqiylarning ahvoli juda og'irlashib qoldi. Chunki qoraxoniylar bilan birga Movarounnahr, shu jumladan, Zarafshon vodiysi hududlariga ham chigillar, qarluqlar, yag'molar va boshqa turk qabilalari ko'chib keldilar. Ularning ko'chib yurishlari va chorva mollari uchun joy, yaylovlar kerak edi. Movarounnahrda iloqxon Alitakin hokimlik qilib yurgan (1034 - yilda vafot etgan) davrida saljuqiy turklarga unchalik teginmas edilar. Alitakin vafotidan so'ng uning o'g'illari yosh bo'lganligidan butun ishni vazir Tunush olib borardi. [1, 200-202 b.] Tunush davrida Saljuqiylar Zarafshon vohasini tashlab ketishga majbur bo'ladilar. Ana shunday og'ir sharoitda Xorazmshoh Xorun 1034 - yilda saljuqiylarga raboti Mashon, Sho'raxon va Govixar tumanlaridan yer ajratib berdi. Biroq Jand hokimi ularga hujum qilib 8 ming kishini o'ldirdi. To'g'rulbek boshliq saljuqiylar bu yerlarni tashlab ketishga majbur bo'ladilar. Ular Mahmud G'aznaviyning o'g'li Ma'sudbekka (1030 - 1041 - yillarda hukmronlik qilgan) murojaat qilib o'zlariga Saraxs, Marv, Obivard, Niso va Farova hududlarida ko'chib yurishga rozilik so'radilar. [1, 204-206 b.] Chunki bu yerlar chorva mollari

uchun juda qulay edi. G'aznaviylar ilgarilari ham bu hududlarni saljuqiy turkmanlarga berib, oqibatda achchiq azoblar chekkan edilar.

Jumladan, 1025 - yilda Mahmud G'aznaviyning ruxsati bilan Obivard, Niso va Farova tumanlariga 4 ming o'tovdan iborat turkman xonadonlari ko'chib kelgandilar. Ular Mahalliy amaldorlarning shahsiy manfaatlari uchun pora tariqasida mol topshirishni talab qilganliklariga javoban oddiy xalqni talay boshlaydilar. Bu hol Turkmanlar bilan mahalliy qo'shni qishloqlar xalqlari o'rtasida g'oyatda kuchli dushmanlikni kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Natijada o'z qilgan xatosidan afsuslangan Mahmud G'aznaviy turkmanlarni tartibga chaqirish uchun harbiy kuchni ishga solishga majbur bo'ldi. Shundan so'ng Turkmanlar bu yerlarni tashlab ketdilar. Ularning bir qismi Balxan tog' tumanlariga, ikkinchi qismi Dehiston tumanlariga, katta bor guruh esa g'arbga - fors iroqi, u yerdan Kavkaz orti, arman va ozor yurtlariga ko'chib ketdi. Shunga qaramasdan g'aznaviylar hukumati To'g'rulbek boshchiligidagi turkmanlarning iltimoslarini qondirib, 1035 - yilda Nishopurda imzolangan shartnomaga ko'ra Niso, Favora va Dehiston tumanlarini ajratib berdilar. Ammo bu safar ham saljuqiy Turkmanlar dehqonchilik bilan shug'ullanadigan mahalliy o'troq xalq bilan umumiy til topa olmadilar. Ular og'izda o'troq aholi bilan tinch yashash tarafdori bo'lsalar-da, amalda g'aznaviylar hukumatidan yangi -yangi yerlarni talab qilishda davom etdilar. Xususan, ular Marv va Saraxs yerlarini qat'iylik bilan talab qildilar. Otasi singari Ma'sud ham turkmanlarga qarshi harbiy kuch ishlatishga majbur bo'ldi. Lekin vaziyat g'aznaviylar zarariga ishlayotgan edi. Xurosonda ularning obro' - etibori qolmagan, shu bois ular hech kimga tayana olmas edilar. Jumladan, g'aznaviylarning so'nggi noibi Abulfozil Suriyni Xuroson xalqi haddan tashqari yomon ko'rar edi. U o'zizing poraxo'rliqi, qo'polligi, do'q-po'pisa qilib har doim mansabini suviste'mol qilganligi tufayli otni qashqasiday elga tanilib qolgandi.

XI asrda yashagan fors tarixchisi Bayhaqiy Xuroson aholisi g'aznaviylar qo'shining aholi hisobiga yashayotganidan va ularning xalqqa qilayotgan zo'ravonligidan shu darajada qiynalib azob chekkan ediki, xurosonga saljuqiy turklar kelganda bu o'lka o'z boshidan to'liq beboshlikni kechirayotgandi, deb yozgan edi. Ana shunday sharoitda g'aznaviylar saljuqiylarga qarshi kurashda muvaffaqiyatga ko'z tika olmas edilar. Ma'sud armiyasining Saraxs yonidagi mag'lubiyatining bosh sababi ham huddi ana shu edi. Endi Turkmanlar uchun Xurosonning bosh shahri Nishopurga tog'ridan to'g'ri yo'l ochilgan edi. Saljuqiylarning boshlig'i To'g'rulbek 1038 - yilda 3 ming kishilik qo'shin bilan deyarli hech qanday qarshiliksiz Nishopurni egalladi. [3, 125 b.] Nishopurlik ruhoniylar va savdogarlar shaharni mutlaqo jangsiz topshirish tarafdori bo'lganliklarini alohida ta'kidlamog' o'rinlidir. 1040- yilda To'g'rulbek Saraxs va Marv oralig'idagi Dandanakan yonida Ma'sud qo'shiniga qaqshatqich zarba berdi. Ma'sudning o'zi esa kichik bir qo'shin bilan zo'rg'a qochib tutildi. Bu jang oqibatida g'aznaviylar davlati mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan bir viloyatga aylanib qoldi,

harbiy va siyosiy ustunlik endi batamom saljuqiylarga o'tib ketdi. G'aznaviylardan tortib olingan yerlarni To'g'rulbek saljuqiylar xonadonining a'zolariga udel sifatida taqsimlab berdi.

Chag'irbek Dovudga Marv va Xurosonning katta qismi, Muso yabg'uga (To'g'rulbekning amakisi) Tus, Hirot va Seiston viloyatlari berildi. To'g'rulbek o'ziga Eronning shimoliy va shimoli - g'arbiy viloyatlarining katta qismini oldi. To'g'rulbek ayni zamonda saljuqiylar davlatining boshlig'i (1038-1063) ham bo'lib qoldi. U xususiy mulk uncha qiziqtirmasdi. To'g'rulbekning nigohi batamom g'arbga qaratilgan edi. U hujumni davom ettirib, Iroq ajami (fors iroqi), Ozarbayjon, Kurdiston, Ko'histonni zabt etdi, To'g'rulbek 1055- yilda Bag'dodga kirib bordi va o'z nomini xutbaga qo'shib o'qitishga Bag'dod xalifasini majbur qildi. Saljuqiylar davlatining poytaxti qilib Ray shahri belgilandi. To'g'rulbek iloji boricha Qoraxoniylar bilan hamkorlikda va tinch yashashga harakat qildi. Ammo bu mustahkam bo'lmagan tinchlik va uzoqqa cho'zilmaydigan hamkorlik edi. 1063- yilda saljuqiylar davlatining asoschisi to'g'rulbek vafot etgach, taxtga uning jiyani , chag'irbek dovutning o'g'li Alp Arslon (1063-1072) o'tirdi. U davlat poytaxtini Mavr (hozirgi Mari)ga ko'chirdi. [1, 203 b.] Alp Arslon podsholigi davrida Qoraxoniylar hukmdori nasr bilan o'zaro qarama - qarshilik va ziddiyat kuchaydi.

Alp Arslon Xuttalon, Chag'aniyon, Jand va Savranga Xorazm tomonga lashkar tortib bordi. U 1072- yilda Qoraxoniylar ga qarshi yurish boshlab, qariyb 200 ming kishilik qo'shinni Amudaryodan o'tkazish uchun kemalardan maxsus ko'prik qurdirdi. Ammo yurish boshlanishi oldidan Alp Arslon o'z chodirida mahalliy qal'alaring boshliqlaridan biri Yusuf al - Xorazmiy tomonidan o'ldirildi. Alp Arslonning o'ldirilishi Qoraxoniylar xoni Shams ul -mulk nasrning ruhini ko'tarib yubordi va tez orada Termizni, so'ngra Balxni egallab oldi.ammo bu xursandchilik ko'p uzoqqa cho'zilmadi. Alp Arslon o'rniga taxtga vorislik qilgan Malikshoh (1072-1092) ko'p vaqt o'tkazmay Termiz va Balxni Qoraxoniylardan qaytarib oldi. Malikshoh hukmronligi davrida vazirlik lavozimida ishlagan Nizom ul - mulk (1017 - 1092) davlat ishlarini boshqarishda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan. [1, 203-204 b.] U davlat arbobi sifatida mamlakatda yirik feodallar va qabila boshliqlarining separatli (Markaziy davlatninajratishga intilish) harakatlariga qarshi kurashgan. 1092 - yilda saljuqiylar hukmdori Malikshoh ham o'ldirildi. Uning o'limidan so'ng toj - u taxt uchunkurash boshlandi. Bu kurashda sultonning yoah o'g'li Berkiyoruq (1094 - 1105) g'olib bo'ldi. XII asr boshlarida saljuqiylar davlati amalda ikki qismga bo'linib ketdi. Movarounnahr va Xuroson hududlari kirgan sharqiy saljuqiylar qismida Malikshohning o'g'li Sanjarning ta'siri ortib bordi. 1097 - yildan Xuroson hokimi bo'lgan Sanjar oliy hukmdorga rasman bo'sunsada, amalda mustaqil harakatlar olib bordi.

1099 - yilda u Toharistonni, 1102 - yil Samarqandni qo'lga oldi. Termiz yonida qoraxoniylar xoni Qodirxon qo'shinini mag'lubiyatga uchratdi. [2, 401-402 b.] 1104 - yilda G'azna qo'lga kiritildi. Saljuqiylar davlatida isyon va g'alayonlar boshlanib ketdi. Bu isyon va g'alayonlar hokimiyat tepasiga 1118 - yilda — " ulug' saljuqiylar "ning eng so'nggi vakili Sulton Sanjar (1118 - 1157) kelgach tinchidi. Uning davrida saljuqiylar Movarounnahrda eng yuksak mavqega erishdilar. Bu davrda saljuqiylar qoraxoniylar davlatining ichki ishlariga juda ko'p aralashadigan bo'lib qoldilar. Qoraxoniylar xoni Arslonxon (1102 - 1130) o'zi mustaqil davlat siyosati yurg'izishga harakat qilgan bo'lsa - da, ana shu davrda inqiroz sari yo'l tutdi. Og'ir ahvolga tushib qolgan Arslonxon do'st bilib yordamga turkman sultoni Sulton Sanjarni chaqirgan edi. Sulton Sanjar katta qo'shin bilan kelib, Movarounnahr va Samarqandni talon - taroj qilgan edi. Samarqandni Sulton Sanjar 1130 - yilda egallagan va qoraxoniylar o'zlarining amadagi mustaqilliklarini yo'qotib, Sulton Sanjarga qaram bo'lib qoldilar . [1, 204 b.] Sulton Sanjarning o'zi ham 1141 - yilda qoraxitoylar bilan Katvon cho'lida (Samarqand yaqinida) bo'lgan jangda qaqshatqich zarbaga uchradi va o'zini o'nglab ololmadi. U 1157 - yilda vafot edi. Ana shu tariqa dunyoni larzaga keltirgan saljuqiylar davlati ham barham topdi.

Xulosa: O'rta Osiyo hududida vujudga kelgan ulkan bir tarixga ega bo'lgan sulolardan biri saljuqiylar haqida bayon etamiz. Somoniylar va G'aznaviylar davrida o'zining mustaqilligini tiklab, keyinchalik ularga o'z ta'sirini ko'rsatgan ulkan bir davlatga aylandi. Saljuqiylar nafaqat O'rta Osiyo balki, Yevropa hududlariga ham o'z ta'sirini qoldirgani bizga ma'lum. O'sha davrning eng qudratli davlati bo'lgan saljuqiylar o'zining siyosiy tarixiga ega suloladir. Saljuqiylar tarixi haqida ko'pgina tarixiy manbalar mavjuddir. Saljuqiylar tufayli Kichik Osiyoga turkiy tilli qavmlarning borib o'rinishi jarayoni kuchaydi va borib - borib mazkur hududda turkiy davlat va millatga asos solinishi uchun tegishli zamin yaratdi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda Turkiyadagi turkiy xalq Turkistonni ota yurtimiz, ya'ni tarixiy vatanimiz, deb atashadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov. Vatan tarixi. Sharq nashriyoti. Toshkent. 2010-yil. 198-204 b.
2. A.S.Sagdullayev. O`zbekiston tarixi. VneshinVestprom. Toshkent. 2019-yil, 396-405 b.
3. A.Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. Sharq, Toshkent, 2001 –yil , 123-133 b.
4. R.Murtazayev. O`zbekiston tarixi. Toshkent 2001-yil, 149-151 b.
5. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O`zbekiston tarixi, Toshkent, “Iqtisod Moliya”, 2006 – yil, 126-130 b.
6. Ibn al-Asir . Al-komil fit – tarix. Toshkent 2005-yil, b.
7. Q.Mahmudov. Turkiy qavmlar taqdiri, “Fan va turmush”, 1990 – yil, 20 b.